

## YOSHLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALSHDA OILA MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIGI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institute 2-kurs magistranti  
Ziyoyeva Mavluda Ergashevna*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorlik konsepsiyasi asosida o‘quvchi –yoshlarni tarbiyalashda oila - mahallaning roli yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** tarbiya, maktab, oila, mahalla, axloq, ota-ona, ma’naviyat, shaxs, jamiyat, tinchlik, yoshlar

Jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, yurtimizda oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy – iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini mustahkamlash, sog‘lom oilani shakllantirish, mahalalar mavqeini mustahkamlash va rolini kuchaytirish, borasida olib borilayotgan islohatlarni yanada rivojlantirishga doir keng ko‘lamli chora-tadbirlar tashkil etilmoqda.

Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida ta’kidlaganidek, “Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. “O‘z bolangni o‘zing asra” degan da’vat faqat quruq shior bo‘lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya’ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas’uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo‘yish vaqti keldi, deb o‘ylayman”. Haqiqatan ham har bir ota-ona o‘z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizni tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma’naviy sog‘lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o‘rganish, kitob o‘qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o‘qishga qiziqtira bilish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-ona o‘z mas’uliyatini har bir daqiqada his qilib yashashi lozim.

Ma’naviyat – faqat insonga xos bo‘lgan xususiyatdir. Ma’naviyat bilan tutash bo‘lgandagina odam farzandi. Inson degan buyuk va sharafli nomga muyassar bo‘ladi. Lekin ma’naviyat insonning tug‘ma xususiyati emas. U – oilada, hayot tajribasi natijasidagina shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababli – I. Karimov ma’naviyatning ijtimoiy mohiyati ustida to‘xtalib, u “Insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi” degan chuqur falsafiy fikrlarni ilgari suradi. Darhaqiqat, ma’naviy

barkamollik, beshikdagi allaning mazmunidan, bolani kiyintirishu uni halol luqma bilan boqishdan boshlanadi. Bola tarbiyasini dono xalqimiz aytganidek, u hali tug'ilmadan, ota, ona va butun oila a'zolari hamjixatlikda boshlamog'i lozimdir. Olamda barcha narsa juft – juft bo'lib yaratilgan. Juft bo'lib yashash tabiat qonunidir, lekin oila bo'lib yashash barcha maxluqotlar orasida faqat insonlarga xosdir. Oila – jamiyatning birinchi va birlamchi bug'inidir, zarrachasidir. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Er – xotin, ikki tirik vujudning, ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan uchinchi bir olam – bu oiladir. Oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil xisoblanadi. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, e'tiqodiga ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida oila ma'naviyatining o'rni beqiyosdir. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda oilaning tutgan o'rni benihoya kattadir. Aslida ham oila jamiyatning bir tarkibiy bo'lagi. Jamiyatda ro'y berayotgan barcha jarayonlar oilaga, kishilarning turmush tarziga bevosita ta'sir qiladi. Har bir inson oilaning o'zidayoq yoshligidan boshlab ma'naviyatning manbalaridan oziqlanib boradi. Avvalambor, oilada ota – onaning o'rni, boshqa oila a'zolari bilan munosabati bola uchun maktabdir. Oilaviy munosabatlarni boshqarishda asosan ota – onaning, yoshi katta kishilarning o'ziga xos o'rni bo'ladi. Inson butun hayoti davomida oila ta'sirida yashaydi. U individual va ijtimoiy ko'nikmalarni hosil qilibgina qolmay, o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha ota – onalik malakasini ham shakllantiradi. Ayniqsa shaxsning ma'naviy faolligini shakllantirishda oila hal qiluvchi omildir. Oilada asrlardan beri avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'analar, urf odatlar davom ettiriladi, har bir oila a'zosiga singdiriladi. Masalan, oilada o'zaro hurmat hammaning qon – qoniga singib ketgan. Yana oilada yoshi ulug' kishilarning fikri doim hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularning hurmati joyiga qo'yilmog'i shart. Yoshi katta kishilarni uyning to'riga o'tqazish, ularga duo fotiha qildirish, birinchi bo'lib dasturxonga qo'l uzatish yoki yoshi katta kishi gapirayotganda quloq solib turish kabi an'analar borki, ularni har bir oila a'zosi bajarishi lozimdir. Ota onaga bo'lgan hurmat, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi hurmat kabi odatlar o'zbek oilasining gultoji hisoblanadi. Oiladagi muhit, vaziyat jamiyatdagi muhit, vaziyatga mos bulmog'i kerak. Aks holda bunday oila a'zolarini jamiyat qabul qila olmaydi. Odamzod biror inshoot yoki korxon qurib bitkazib maxsulot chiqara boshlasa, cheksiz quvonadi. Lekin insonni dunyoga keltirish va uni barkamol benuqson shaxs qilib tarbiyalash maxsulot ishlab chiqarishdan ulug'roq va mashaqqatliroq ish ekanini uncha muncha odam anglayvermaydi. Xolbuki, oila qurish, farzandni dunyoga keltirish va tarbiyalash, uy – ro'zg'or yumushi shunchaki ishlar emas. Balki aynan shu jarayonlar oqibatida to'la qonli inson voyaga yetadi. Insonning yetuklik darajasiga yuksaltirishda yana bir asosiy omil tarbiyadir. Ijtimoiy hayotda tarbiya manbai juda ko'p va turlituman. Lekin onaning, ayolning tarbiyasi odamning

shakllanishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Ona bolani faqat aql – idrok bilan emas, balki tuyg'ular, nozik hislar bilan ham tarbiyalaydi. O'zida neki bo'lsa bolasiga ato etadi. Ona tarbiyasini olmagan, uning mehr – muhabbatiga qonmagan inson ruhan majruh bo'lib qoladi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 1993-yilda ishlab chiqilgan Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligi Konsepsiyasi asosida umumta'lim maktablari bilan o'zini o'zi boshqarish organlari va oilalar o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu esa yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, o'quvchilarda qiziqishini, iste'dodini, qobiliyatini rivojlantirishda xizmat qilib kelmoqda. Hozirgi kunda " Oila , mahalla , ta'lim muassasalari" hamkorligi oilalardagi axloqiy muhitni yaxshilab , ularda tarbiyalanayotgan farzandlarni zamon talablari asosida hamda milliy qadriyatlar ruhida trbiyalashda muhim rol sanalmoqda.

Inson bolasi uchun oila asosiy go'sha , hayotga tayyor bo'lib chiqadigan qutlug' va mo'tabar dargoh. Uning xosiyati fazilatlarini , odam jismonan va ruhan quvvat-u tarbiya olishini oila bilan bog'lasak , turmush kechirishdagi hissasi juda ham ulug' ekanini his qilamiz. Oila -jamiyatning bir bo'lagi hisoblanib , u qancha mustahkam va har tomonlama barkamol bo'lar ekan jamiya ham tez rivojlanadi.

### TADQIQOT NATIJALARI

Yana bir narsani unutmasligimiz kerak tarbiyada har bir bolaning xulqiga , temperamentiga qarab munosabat , muomala qilishimiz lozim . Albatta , bunda bolaning yoshi , jinsi, aqli, farosati, xullas , hammasini hisobga olish darkor. U hali bola degan fikrni unutib, bola boshidan degan fikr bilan tarbiyalanib borishi kerak.

Tarbiya jarayonida mayda detal degan narsa bo'lmasligi kerak , chunki u o'z o'rnida g'oyat muhim bo'lishi mumkin." Bolani faqat u bilan gaplashganda , nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman deb o'ylamang. Siz bolani turmushingizning har bir lazasida , hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingizni , boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingizni , xursand bo'lishingiz yoki tashvishlanishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz gazeta o'qishingiz bularning hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega " degan edi tarbiyashunos olim. Haqiqatdan ham inson farzandida shunday bir narsa borki , u oilada olgan tarbiyasini bir umr unutmaydi va doim o'sha ishga taqlid qilib yashaydi . Dono xalqimizda bir maqol bor" Qush uyasida ko'rganini qiladi".Shunday ekan farzandlarimizga yoshligidan katta e'tibor berishimiz lozim.

### MUHOKAMA

Agar oilada muhit yaxshi bo'lmasa ya'ni ota -ona farzandlariga befarq bo'lib va har doim janjallar sodir bo'laversa bu bolaning tarbiyasiga, rivojlanishiga qattiq ta'sir ko'rsatadi. Chunki oila farzandning dastlabki tarbiya maktabidir.Afsuski, oramizda

shunday ota-onalar ham uchraydiki, bolaning hamma talab - ehtiyojlariga haddan tashqari e'tiborli bo'lib, barcha o'jarliklarini ko'taradilar. Natijada bola kelajakda yomon xulqli , jamiyatga zarari tegadigan inson bo'lib qoladi. Ana shunday muammolar kelib chiqmaslikning oldini olish uchun biz bo'lajak yosh avlodga to'g'ri tarbiya berib, ularga adolatlilik, to'g'ri so'zlilik, haqqoniylik va hurmat-izzatni o'rgatishimiz lozim.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni tarbiyalashda asosiy ta'lim-tarbiya o'chog'i bu maktabdir. Maktabga har xil oiladan turli xil xulq-atvordagi o'g'il -qizlar kelishadi. Bularda maktabning qonun va qoidalariga ko'nikma hosil qilish , jamoa bilan birga bo'lish odatini shakllantirish juda qiyin hisoblanadi. Ana shu narsa oila bilan maktab hamkorlikda o'tkazsa bolalar xulqidagi salbiy xususiyatlarni bamaslahat hal qilishsa , tarbiyasi yomon o'quvchi bo'lmaydi.

Biz bilamizki hamma narsa mahalladan boshlanadi. Yoshlar tarbiyasi ular ma'naviy kamolotining samarali yo'llaridan biri davlat huquq-targ'ibot organlari , xalq ta'lim tizimi hamda mahallalarning jamoat tashkilotlarining yaqin hamkorligidir .

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Mavlonova, K. Xoliqberdiyev, "Pedagogika". T: "O'qituvchi nashriyoti". 2002-yil
2. Ona tili o'qitish metodikasi / K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. -T: "NOSHIR", - 2009
3. Abdullayeva, O. O. (2021). Abay ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(3), 4-9.
4. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. Academic research in educational sciences, 2(3), 176180.